Davlat budjetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi xarajatlarini samarali boshqarish yo'llari.....	1011
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Mintaqada xalq hunarmandchiligida klasterlash va ekologik logistika modeli asosida savdo tizimini shakllantirish.....	1015
Norqobilova Feruza Abduhomidovna	
To'g'ri xarajatlar usuli va to'liq yutuvchi xarajatlar usuli tizimlarining afzalliklari va farqli jihatlari amaliy misolda.....	1019
Kholisa Kamoliddinovna Kuldosheva	
Investitsiyalarni innovatsiyalarga yo'naltirish bo'yicha xorij tajribasi	1024
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
Важность разработки стратегических программ развития страны.....	1028
Каримова Нуржохон Олим кизи	
Sanoat korxonasining raqamli transformatsiyasini baholash omillari va ko'rsatkichlari.....	1032
Kudaybergenov Azamat Shamuratovich	
Namangan viloyatida ijtimoiy turizm tadbirkorligini maqsadli boshqarish mexanizmi.....	1042
Yunusova Sohiba Abdumamidovna	
Evaluating the capital asset pricing model methodology in uzbekistan companies	1048
Bunyod Usmonov	
Aholini ish bilan bandligining yangi turlari va imkoniyatlari	1055
A.B. Khayitov	
Maktab direktorlarini qo'llab-quvvatlashda asosiy ustun amaliyotlar va o'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash imkoniyatlari	1059
Mamura Tadjibayeva	
Sun'iy intellekt asosida matematik masalalarni yechish algoritmlari	1064
Oqnazarov To'liqin Jalilovich, Jo'rayev Mardon	
Global ta'lim makonida milliy tarbiyani rivojlantirish istiqbollari	1071
Sanaqulov Sardor Istamqulovich	



Bank xizmatlari sifati va bank daromadlariga ta'sir etuvchi omil sifatida personal faoliyatining o'rni.....	1075
Abdukaxarova Shoir Abdurahobovna	
Fond bozori raqamli iqtisodiyotda investitsiyalarni shakllantirish manbai sifatida.....	1079
Kamilova Sevara Anvarovna	
O'zbekistonda toza suv va sanitariyaning inson hayoti hamda iqtisodiy farovonlikka ta'siri: BRM-6 doirasida tahlil.....	1085
Xasanova Iroda Azizbek qizi	
Increasing the effectiveness of using marketing communications in the tourism services market.....	1090
Sobirjonov Asrorbek Sobitjon ugli	
Davlat xaridlari sohasini takomillashtirish istiqbollari.....	1095
Bazarov Nazirjon Sobirovich	
Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'afar Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli transformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abduxalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Tijorat banklarining aktivlari portfelini samaradorligini mustahkamlashda xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1368
Xojiyev Jaxongir Dushabayeich	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsafov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	



SURXONDARYO VILOYATIDA IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA FAOL KORXONALAR VA TASHKIOTLAR TAHLILI

Normurodov Alibek Anvar o'g'li

Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar
Universiteti "Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrası assistenti

normurodovlibek1923@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-4915-4118>

Annotatsiya: Maqolada Surxondaryo viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy tahlili, viloyatining ishlab chiqarish va resurs salohiyati, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni ham savdo-sotiq yo'nalishi iqtisodiy tahlil qilingan. Xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, iqtisodiy faoliyat, faol korxonalar, tarmoqlar tahlili, sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish sohasi, qishloq xo'jaligi, hududiy rivojlanish, tadbirkorlik, statistik tahlil.

Abstract: This article presents an economic analysis of active enterprises and organizations in Surkhandarya region, categorized by types of economic activity. It examines the region's production and resource potential, economic entities, and the number of small business entities across various economic sectors. Additionally, the article provides an economic analysis of the trade sector. Conclusions and recommendations are offered based on these analyses.

Key words: Surkhandarya region, economic activity, active enterprises, sectoral analysis, industrial enterprises, service sector, agriculture, regional development, entrepreneurship, statistical analysis.

Аннотация: В статье представлен экономический анализ активных предприятий и организаций Сурхандарьинской области по видам экономической деятельности, производственный и ресурсный потенциал области, хозяйствующие субъекты, количество субъектов малого предпринимательства по видам экономической деятельности, а также проведен экономический анализ направления торговли. Представлены выводы и предложения.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, экономическая деятельность, активные предприятия, анализ отраслей, промышленные предприятия, сфера услуг, сельское хозяйство, региональное развитие, предпринимательство, статистический анализ.

KIRISH

Hududning iqtisodiy taraqqiyoti turli sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sishi hamda samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Surxondaryo viloyati so'nggi yillarda iqtisodiy faoliyatda e'tiborga loyiq yutuqlarga erishdi. Bu, ayniqsa, savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalar sonining sezilarli darajada ortishida yaqqol namoyon bo'ldi. Ushbu korxonalarning rivojlanish tendensiyalari va iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi taqsimotini o'rganish siyosat ishlab chiqish, strategik rivojlanish va hududiy raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun muhim ma'lumotlar beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy tahlil qilishdan iborat [2]. Bunda hududning ishlab chiqarish va resurs salohiyati, kichik biznesning rivojlanish yo'nalishlari, xususan, savdo va sanoat sohalarida kuzatilayotgan yaqqol o'sish tendensiyalari o'rganiladi. Bundan tashqari, ushbu maqolada amaldagi hududiy



siyosatning ta'siri muhokama etiladi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli chora-tadbirlarning samaradorligi baholanadi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiyot rivojlanishini o'rganishda faol korxonalar soni, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimot va kichik biznes subyektlarining o'sish tendensiyalari muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Bu sohada ko'plab xalqaro va mahalliy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Ko'pgina tadqiqotlarda iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish va kichik biznes subyektlarini rivojlantirish hududiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Masalan, Porterning raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra, hududlar o'zlarining tabiiy va iqtisodiy resurslariga mos keladigan innovatsion sanoatlarni rivojlantirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlashi mumkin [1]. Shuningdek, Romer va Lukas modellarida inson kapitali va texnologik innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida ko'rsatilgan [2].

O'zbekiston sharoitida hududlarning rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning alohida o'rni ta'kidlangan. Xususan, Abdurahmonov K.K. va Shodmonov Sh.Sh. o'z izlanishlarida kichik korxonalarning zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatib berganlar [3]. Bundan tashqari, Jahon banki va BMTning Taraqqiyot dasturi tomonidan e'lon qilingan hududiy rivojlanish hisobotlarida iqtisodiy faoliyatning hududiy konsentratsiyasi va uning beqarorlikka ta'siri yoritib berilgan [4].

Surxondaryo viloyatida so'nggi yillarda kuzatilayotgan o'sish jarayoni, ayniqsa savdo, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida faol korxonalar sonining ortishi yuqorida tilga olingan nazariyalarga mos keladi. Shuningdek, Mahmudov va Alimov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot hududda iqtisodiy faoliyat turlarining muvozanatli rivojlanishi ta'minlanmasa, hududlararo tafovutlar chuqurlashishi mumkinligini ko'rsatib, ushbu mavzuga muhim nazariy asos beradi [5].

Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, ya'ni imtiyozlar, soliq yengilliklariva kredit resurslariga erkin kirish imkoniyati tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda [6]. Bu esa iqtisodiy faoliyat yurituvchi korxonalar sonining ortishiga va ularning faoliyat turlari bo'yicha diversifikatsiyasiga olib kelmoqda. Ushbu holat mazkur maqolada keltirilgan statistik tahlil orqali ham o'z tasdig'ini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida Surxondaryo viloyatidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibiy holati va ularning yillik rivojlanish dinamikasini tizimli tahlil qilish yondashuvi qabul qilindi. Tadqiqot quyidagi metodik yondashuvlar asosida olib borildi:

Ma'lumotlar bazasi va tanlovi. Tahlil uchun asosiy statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Surxondaryo viloyati hokimligi hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga doir rasmiy hisobotlardan olindi. 2010–2024 yillar oralig'idagi rasmiy statistik to'plamlar asosida faol korxonalar soni, ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni hamda o'zgarish sur'atlari o'rganildi.

Statistik tahlil usullari. Tadqiqotda iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini aniqlash maqsadida quyidagi statistik usullar qo'llanildi:

Deskriptiv (ta'riflovchi) statistika: iqtisodiy faoliyat turlarining miqdoriy va foizli o'sish sur'atlari aniqlab chiqildi;

Tarkibiy tahlil: faol korxonalar tarkibida har bir tarmoqning nisbiy ulushi tahlil qilindi;

Trend tahlili: 2010–2024 yillar oralig'idagi o'sish dinamikasi grafik tasvirlar orqali baholandi.

Vizual tahlil vositalari. Jadval va grafiklardan foydalanilgan holda ko'rsatkichlar yillik kesimda aks ettirildi. Bu orqali tarmoqlar bo'yicha o'zgarishlarning yo'nalishi va intensivligi ko'rsatildi. Python dasturlash tilidan foydalanilib, asosiy trend chiziqlari qurildi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlari tahlil qilinib, ularning amaliy ta'siri sifat baholash asosida ochib berildi. Mazkur hujjatlar mahalliy darajadagi iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida qaraldi.

Ekstrapolyatsiya yondashuvi. 2024 yil uchun ba'zi ko'rsatkichlar 2020–2023 yillardagi real statistik ma'lumotlar asosida ekstrapolyatsiya yo'li bilan baholandi. Bu yondashuv mavjud tendensiyalar asosida yaqin istiqboldagi o'sish sur'atlarini aniqlash imkonini berdi.

Komparativ tahlil. Viloyat tumanlari va tarmoqlar o'rtasida iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirma tahlil amalga oshirildi. Ayniqsa, savdo, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida korxonalar sonining o'sish sur'atlari alohida taqqoslab tahlil qilindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizning yirik korxonalari sanoat sohasida barqaror ravishda peshqadamlik qilmoqda, mahsulot sotish bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta biznes sub'ektlari esa tibbiyot, san'at, sport va dam olish, ijtimoiy himoya kabi turli xil xizmatlarni taqdim etmoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya sohasidagi xizmatlar eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatib, 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 25,6 foizga oshgan[9]. Bu esa, o'z navbatida, Surxondaryo viloyatining iqtisodiy sohasini tahlil qilishni iqtisodiy turlar bo'yicha amalga oshirish zarurligini anglatadi (1-jadval)[7].

1-jadval. Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar soni, (birlikda)

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
Jami	10457	10477	17956	27039	29017	31159	33192	22735
shu jumladan:								0
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1804	786	1439	3445	3751	4185	4534	2730
sanoat	1118	1308	2627	4058	4637	4824	5272	4154
qurilish	1183	1079	2256	2467	2718	3030	3301	2118
savdo	3300	3194	6910	8051	8121	9450	9940	6640
tashish va saqlash	368	525	810	832	887	924	973	605
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	474	787	1580	1703	1796	1911	2011	1537
axborot va aloqa	72	179	285	330	374	413	455	383
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	132	208	310	437	491	548	603	471
boshqa turlari	2366	2411	1739	5716	6242	5874	6102	3736


Surxondaryo viloyatidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonini tahlil qilganda, viloyat ichidagi shahar va tumanlarning iqtisodiy salohiyati, xomashyo bazasi, infratuzilma va logistika sharoitlari o'rganilgani, shuningdek, muayyan tovarlarni import qilish zarurati baholangani asosida qo'shimcha qiymat zanjirini to'liq qamrab oluvchi va turli sanoat hamda hududiy korxonalar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlovchi asos yaratilgani ko'rinadi. Bu holat savdo xizmatlari boshqa iqtisodiy faoliyat turlariga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganligi bilan tasdiqlanadi. Ayniqsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 2010-yilga nisbatan 6640 taga ko'payib, 9940 taga yetganligi e'tiborga loyiqdir.

Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni jihatidan keyingi o'rinda sanoat sektori turadi. 2010-yilda ushbu sektordagi korxonalar soni 1118 tani tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 4154 taga ko'payib, 5272 taga yetdi. Bu o'sish Surxondaryo viloyatining



ishlab chiqarish va resurs salohiyatini kompleks va samarali ishga solish, asosan yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish natijasida yuz berdi.

Surxondaryo viloyatida faol korxonalar soni bo'yicha sohalar (2010-2024)



1-rasm. Surxondaryo viloyatida faol korxonalar soni bo'yicha sohalar (2010-2024)

Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2020-2024 yillarda tijorat va sanoat sohalarida eng yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatdi, boshqa sektorlarning ham ijobiy tendentsiyani saqlab qolishi iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini namoyon etmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, sanoat sohasida aniq loyihalarni ishlab chiqish uchun farmatsevtika, to'qimachilik, charm-poyabzal va mebel sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor yo'nalishlar bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan va rivojlanishning «O'zbek modeli» sifatida jahonda e'tirof etilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning natijasidir [10]. Shunga muvofiq, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, Prezident farmonlari va qarorlari qabul qilindi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarga imtiyoz va preferensiyalar taqdim etilib, ularning huquqiy himoyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash, huquqiy, axborot-konsalting, audit, ko'chmas mulk vositachiligi, interaktiv va boshqa zamonaviy xizmatlar ko'rsatish tizimi keng joriy etildi. Hozirgi kunda O'zbekistonda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning 90 foizi xususiy korxonalarga to'g'ri kelishi ham ushbu sohaga yuqori darajada e'tibor qaratilganligining natijasi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Surxondaryo viloyatidagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxona va tashkilotlar sonini tahlil qilganda, ushbu korxona va tashkilotlarning tarkibiga alohida e'tibor qaratish lozim (2-jadval) [8].



2-jadval. Surxondaryo viloyati bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni, (birlikda)

Ko'rsatkichlar	2010 y.	2015 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2023 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi (+,-)
Jami	8168	8836	15437	21536	22482	27268	29494	21326
shu jumladan:								
qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	633	762	1400	3404	3708	4142	4489	3856
sanoat	1042	1243	2513	3931	4418	4724	5151	4109
qurilish	1183	1079	2256	2467	2718	3030	3301	2118
savdo	3323	3211	5 166	6 910	8105	9435	7910	4587
tashish va saqlash	512	438	731	810	824	878	905	393
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	439	631	1411	1580	1694	1888	2029	1590
axborot va aloqa	67	178	235	285	324	367	407	340
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	123	197	305	410	364	413	399	276
boshqa turlari	846	1097	1420	1739	2021	2391	2702	1856

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar sonida ham savdo va sotuv sohasi yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda (2024-yilda 2010-yilga nisbatan 4587 taga ko'payib, 7910 taga yetgan). Natijada, bu viloyatdagi jami savdo va sotuv korxonalarining deyarli 100 foizini (aniqrog'i 99,8 foizini) tashkil etdi. Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami korxonalar va tashkilotlar sonida 2010-2024-yillardagi o'rtacha ulushning 79,1 foizini kichik korxonalar tashkil etishini inobatga olsak, bu holat hududni sanoati rivojlangan va iqtisodiy jihatdan barqaror mintaqaga aylantirishga hissa qo'shmoqda.

Xususan, joriy yilning birinchi yarmida yalpi hududiy mahsulot hajmi 9,8 foizga oshdi [11]. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 10,3 foizga, qurilish pudrat ishlari 11,2 foizga, qishloq xo'jaligi 20,5 foizga, savdo va umumiy ovqatlanish sohasi 12,3 foizga o'sdi. Kichik biznes va xususiy korxonalarda 22 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi. Xususiy sektor tomonidan 766,3 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, 671,6 milliard so'mlik qurilish ishlari amalga oshirildi va 506,4 milliard so'mlik pullik xizmatlar ko'rsatildi.

Kichik korxonalarning rivojlanishidagi hududlararo sezilarli tafovutlar mamlakatimiz taraqqiyotining ayrim tendensiyalari ta'siri bilan bog'liq [13]. Bir tomondan, Surxondaryo viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanishi hududdagi tarkibiy o'zgarishlar bilan uyg'un kechmagani sababli, an'anaviy kuchli sanoat markazlari o'sishda davom etayotgan, ammo sanoat salohiyati past bo'lgan hududlar turg'un holatda qolayotgan umumiy xususiyat kuzatildi. Boshqa tomondan, ko'pgina muayyan hududlarga xos bo'lgan korxona faoliyatida «kapital yetishmasligi» hodisasi namoyon bo'ldi.

Viloyat ichida biznes faoliyatining to'planishi kichik korxonalarning rivojlanishidagi hududlararo tafovutlar shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda va ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikni kuchaytirmoqda. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, kichik korxonalarning soni emas, balki samaradorligi davlat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Surxondaryo viloyatida turli iqtisodiy sohalarda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2010-yildan 2024-yilgacha izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Ayniqsa, savdo va sanoat



sohalarida sezilarli o'sish kuzatilgan. Bugungi kunda kichik biznes subyektlari umumiy ulushning 79,1 foizini tashkil etayotgani viloyatda xususiy sektor yetakchi kuchga aylanganidan dalolat beradi. Biroq, iqtisodiy faoliyatning hududlararo taqsimoti hamon nomutanosib bo'lib, ayrim tumanlar sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida orqada qolmoqda.

Maqolamizdagi xulosalarga asoslanib, kelajakdagi rivojlanish uchun quyidagi tavsiyalarni taqdim etamiz:

- Hududlar bo'yicha sanoatni muvozanatli rivojlantirish: Rivojlanmagan tumanlarda raqobatbardosh sanoat tarmoqlarining o'sishini rag'batlantiruvchi dasturlarni kengaytirish.

- Qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish: Qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish orqali mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash korxonalarini rivojlantirish.

- Tadbirkorlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni soddalashtirish: Tadbirkorlarni samarali qo'llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli, past foizli kredit liniyalari va investitsiya grantlarini taqdim etish.

- Tahliliy markazlar va ma'lumotlar bazalarini tashkil etish: Iqtisodiy faoliyatni aniq tahlil qilish asosida qarorlar qabul qilish uchun zamonaviy statistik platformalarni yaratish.

- Hududlararo hamkorlikni kuchaytirish: Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash orqali ichki bozor imkoniyatlaridan to'liq foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Porter, M. E. (1998). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
2. Romer, P. M. (1986). Increasing Returns and Long-Run Growth. *Journal of Political Economy*, 94(5), 1002–1037;
- Lucas, R. E. (1988). On the Mechanics of Economic Development. *Journal of Monetary Economics*, 22(1), 3–42.
3. Abdurahmonov K.K., Shodmonov Sh.Sh. (2022). *Kichik biznes va tadbirkorlik: rivojlanish istiqbollari*. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti.
4. World Bank (2020). *Uzbekistan: Systematic Country Diagnostic*. Washington, DC: World Bank Publications.
5. Mahmudov B., Alimov A. (2021). Hududiy iqtisodiy o'sishda nomutanosibliklar va ularni kamaytirish mexanizmlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(1), 89–97.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PQ–289-sonli qarori "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"
7. Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risidagi statistik hisobotlar (2010-2024 yillar).
8. Normurodov A.M. «Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlili», Toshkent moliya menejmenti va texnologiyalari xalqaro universiteti, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari (2024).
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid rasmiy hujjatlar.
11. Surxondaryo viloyati hokimligining hudud iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha hisobotlari.
12. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga oid mahalliy qonunchilik hujjatlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar.
13. Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining O'zbekiston va Surxondaryo viloyati iqtisodiyoti to'g'risidagi hisobotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>